

KOREYS LINGVOKULTUROLOGIYASIDA “AYOL” KONSEPTIGA  
OID “ONA” SEMASINING UMUMIV TAVSIFLARI

*Hakimova Barno Hakim qizi*

*Toshkent xalqaro universiteti “Xorijiy tillar” kafedrası*

*o‘qituvchisi*

*[hakimovabarno92@gmail.com](mailto:hakimovabarno92@gmail.com)*

*+998909971107*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lgan, xorijiy tillarni o‘qitishda va tarjimalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan koreys lingvokulturologiyasiga oid bilimlarni mustahkamlashda o‘z ahamiyatiga ega. Koreys kognitiv lingvistikasidagi “ayol” konseptining aynan “onalik” maqomiga oid semalar haqida so‘z boradi. Maqolaning kirish qismida koreys lingvokulturologiyasi haqida umumiy fikrlar berilgan. Asosiy qismida esa xususan, koreys tilidagi “ayol” konseptining “onalik”ka oid semalari izohlab beriladi. Xulosa qismida koreys lingvokulturologiyasidagi “ayol” konseptida asosan “ona” semasi yetakchi o‘rinni egallashi, koreys xalqida ham onalik maqomi ulug‘lanishi xulosa qilinadi.

**Tayanch so‘zlar:** Lingvokulturologiya, koreys madaniyati, konsept, ayol, ona.

Koreys madaniyatining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri koreys ota va onalari farzandlarining kamol topishi, voyaga yetishi, yetuk inson bo‘lishi, hayotni to‘la anglab yetishlari darajasida tarbiya beradi. Uydagi qush poloponlarini qanoti ostida parvarishlab, tumshug‘ida oziqlantirib voyaga yetkazganidan so‘ng ularni uchishga - parvozga o‘rgatadi. Ota-onalarning tarbiyasi ham xuddi qushning poloponini parvozga o‘rgatishi misol “temir qanot” bo‘lib farzandlarni qanoti ostiga olib kamolga yetkazadi. Yuqoridagi kelirilgan parchada ota-onalar farzand tarbiyasida bir tan-u bir jon ekanliklariga ishora qilingan. Pak Vanso asarlarida bilakda kuch, yurakda shijoat ila “tarbiya” deb atalmish hayotiy saboq darsi farzandlarning vujudiga, ongiga singdirib boriladi. Ota-ona bir-birlarini to‘la anglab yetgan holda ota fikr yuritish, ona esa tushuntirish kuchiga ega bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirib, farzandlarni kamolotga yetkazadi. Farzand uchun ota-onaning jamiyatda tutgan o‘rni turli o‘xshatishlar bilan ifoda etilgan. Bolalarning ruhiy holatiga ota-qo‘rgon darajada yuksak quriladi. Ota ham o‘z tajribasi bilan bolani oldindan turli xavf-xatarni ko‘ra olishi va undan himoya qila olishiga ishora etilgan. Pak Vanso asarlarida ona farzandi uchun o‘zini fido qila oladigan darajada fidoiydir. Bu fidoiylik quyidagi parchada o‘z aksini topgandir.

“Qo‘g‘irchoqning tushi” hikoyasida Pak Vanso zamonaviy koreys oilasi hayotining muhim tomonlarini o‘z qarashlarida bayon etib beradi. Kattalar va yosh avlod o‘rtasidagi munosabat – o‘smirlarni hayotdagi o‘z o‘rnini topib olish masalasi

bilan bo‘liq bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda odamlar orasidagi munosabat g‘ayritabiiy, tarbiya tizimi esa “o‘lib bo‘lgan”. Bu o‘ylarni yozuvchi buddaviylik asosiga ko‘ra hayotni tush kabi anglash – an‘naviy obrazi orqali hikoyada gavdalantiradi. “Uyquning noreal makonida” qahramon o‘z erkidan ayrilgan va o‘zgalar tomonidan boshqariladigan “qo‘g‘irchoq” bo‘lishga mahkum etilgan. Yosh avlodga ota-onalari tomonidan berishga harakat qilingan tarbiya simvolik kartina tarzida taqdim etilgan: qahramon universitetga topshirmoqchi bo‘ladi. Lekin universitet uning ko‘ziga vayron bo‘lgan qishloq, murabbiylar skletni eslatar, ta‘lim olish uchun bosib o‘tish kerak bo‘lgan yo‘l esa – nihoyasiz muzlagan yo‘l edi. Pak Vanso o‘zining qahramonlarini “muzlagan uyqu olamida” qoldirib qo‘ymaydi. Hikoya kelajak hayotga umid uyg‘otish bilan yakun topadi: ayol (bahor va iliqliq ramzi) “muzlagan makon”ni qayta quradi va yoshlarni uyqudan uyg‘onishga chorlaydi.

Koreys adabiyotida ayol hamda uning fazilatleri, oila va jamiyatdagi o‘rniga bag‘ishlangan asarlar juda ko‘p. Xususan, koreys xalqida ayol doimo oilaning farishtasi, ro‘zg‘orning sarishtasi, eng asosiysi, avlodlar zanjirining davomiyligini ta‘minlovchi shaxs sifatida ulug‘langan. Darhaqiqat, onalik ayolning eng sharaflari va o‘z o‘rnida mas‘uliyatli vazifasidir. Buni quyidagi parchada yaqqol ko‘rishimiz mumkin: “어머니가 반중매쟁이가 되어야 딸을 살린다. 딸을 둔 어머니는 중매쟁이가 되다시피 하여야 딸을 시집보낼 수 있다는 뜻으로, 과년한 딸을 가진 어머니는 딸을 시집보내기 위해서 누구보다 애쓰고 뛰어야 한다는 말. 어머니가 의붓어머니면 친아버지도 의붓아버지가 된다<sup>1</sup>

*Ona sovchi bo‘lib borib, o‘g‘liga rafiqqa, o‘ziga qiz olib keladi. Kelinni rafiqqa qilib olib keladi degani, uni o‘z uyiga olib kelib qizidek ardoqlashidir. Unga ona o‘rnida ona bo‘lishidir.*

Ayol ona maqomiga erishgach, oilada ham, jamiyatda ham mustahkam o‘ringa ega bo‘ladi, unga bo‘lgan hurmat bilan bir qatorda mas‘uliyat ham ortadi. U endi muayyan bir shajara davomchisining g‘amxo‘ri va boquvchisi, kelajakda jamiyat va davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi yosh avlodning tarbiyachisi sifatida bir qator huquq va imtiyozlar bilan birga burch va vazifalar egasidir. Onaning birinchi galdagi vazifasi farzandini jismonan va ma‘nan sog‘lom qilib voyaga etkazishdan iborat. Ayniqsa, voyaga yetayotgan qiz bola tarbiyasida onaning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga egaligi quyidagi Pak Vanso hikoyalarida ham o‘z ifodasini topgan. Ona qizining baxtli bo‘lishi uchun hamma shart-sharoitlarni yaratadi, ammo unga baxtni yasab berolmaydi, onaning bekam-u ko‘st tarbiyasini amalda qo‘llay olib, baxt sohibasi bo‘lish qizning o‘z qo‘lidadir. Ona o‘z tabiati, xatti- harakati, fazilatleri yoki, aksincha, xato va kamchiliklari orqali qizining kelajagiga bevosita ta‘sir o‘tkazishi nazarda tutilib,

<sup>1</sup> 이인나. 조명희 문학 연구. – 서울., 2006년

onaning o‘z mas’uliyatini yanada teranroq his etishga undaydi. Bir onaga qiz ham shunchalar kerakligi va azizligi ifodalangan, shu bilan birga Pak Vanso shunday demoqchiki, bunda ko‘z insonning go‘zalligini oshiruvchi, ichki dunyosi va kechinmalarini qarashlari va nigohlarida aks ettiruvchi bo‘lsa, qiz farzand ham onaning oiladagi va jamiyatdagi aks sadosi, oynasidir.

“Uydagi boshqaruvim nimalarga olib keldi” – asrda qahramon an’anaviy koreys ayoli obrazidan farqli o‘laroq, jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilab olishga harakat qilgan ona sifatida gavdalanadi. Hikoya bir oilada ikki taraflama hayotga ega bo‘lgan – “ichki” va “tashqi”, bo‘lib o‘tadigan voqealarni tasvirlaydi. Tashqi oila salobatli va o‘zaro hamdo‘st ko‘rinadi. Bu kichik jamoaning har bir a‘zosi o‘z o‘rnini biladi va o‘zini vazifalarini bajaradi. Qachonki uyda er yo‘q bo‘lar ekan, uy egasi xotin bo‘lib oladi. Xotin esa eri o‘rnatgan tartib-qoidaga bo‘ysungisi kelmaydi. U erning o‘gitlariga mensimay qaraydi, oilani “o‘rab olgan” “tinchlik qobig‘i”ni buzadi. “Hayot mazasini” tugan xotin esa, er kelganda o‘zining qoidalarini tan olinilishini istab qoladi. Pak Vansoning boshqa hikoyalari kabi yozuvchi o‘z fikrlarini ramz va simvollar ortiga yashiradi. Masalan, atayin o‘stirilgan past qarag‘ay uyning boshi tomonidan “shakllantirilgan” sun‘iy munosabatlar ramzini tasvirlaydi. Pak Vanso asarda oiladagi munosabatlar va ayolning roli masalasiga e‘tibor qaratar ekan, patriarxal jamiyat ustuning qimirlab qolganini ta’kidlamochidek bo‘ladi. Misol uchun:

이미 낙엽을 끝낸 분수가의 어린 나무들이 벌거숭이 몸을 애처롭게 떨며 서로의 가지를 비빈다.

서로 호감이 있으면서도 헤어질 수밖에 없었던 이경과 옥희도를 의미한다고 볼 수 있다. 또한 어린 나무들이 거리를 좁히지 못하고 떨고 있는 것은, 인간은 근본적으로 외로운 존재이기 때문에 근원적인 고독은 결코 해결되지 않는다는 의미가 담겨 있다.

그러나 그뿐, 어린 나무들은 서로의 거리를 조금도 좁히지 못한 채 바람이 간 후에도 마냥 떨고 있었다.』↳ 삶에 대한 서로의 이해를 상징:자연 묘사를 통한 결말 처리 방식 : 주인공은 옥희도 씨의 그림 전시회를 본 후 과거 사건이 떠올라 애상적인 감정에 빠져 있다. 이러한 주인공의 심리 상태가 낙엽이 다 떨어진 어린 나뭇잎의 모습과 연관되면서 작품의 분위기를 형성한다. 그리고 상징적인 소재인 ‘어린 나뭇잎’을 등장시킴으로써 독자들로 하여금 마음 속에 짙은 여운을 느끼게<sup>2</sup>

“Yiqilgan barglarni tugatgan buloqning yosh daraxtlari yalang‘och tanada

<sup>2</sup> 이인나. 조명희 문학 연구. – 서울., 2006년

titraydilar va bir-birlarining novdalarini siladilar.

Aytish mumkinki, bu Li Kyung va Ok Hee degan ma'noni bildiradi. Yosh daraxtlar ko'chalarini toraytira olmasliklari va ularni titratmasligi aslida yolg'izlik hech qachon tugamasligini anglatadi, chunki inson aslida yolg'iz o'zi mavjuddir.

Lekin bu faqat yosh daraxtlar bir-biridan uzoqlasha olmadi va ular shamoldan titrab ketishdi. Bir-birining hayot haqidagi tushunchasini ramziy tasavvur qilish: tabiat portretlari bilan tugashga qanday erishish mumkin: Asosiy mo'jiza sirligicha qoldi. Uilyamning foto ko'rgazmasini ko'rgandan keyin his-tuyg'ularga cho'mildi. Bu qahramonning psixologik holati butunlay tushib qolgan va ish muhitini yaratadigan yosh bambuk rasmi tufayli edi. Va nihoyat, ramziy ma'noda "yosh bambuk" bilan tanishish yosh ona qalbida chuqur iz qoladiradi".

Asardan olingan yuqoridagi parchada adiba yosh bambuk timsoli orqali yosh ona haqida so'zlaydi. Nav nihol bambukdek yosh ona har doim yam-yashil, mustahkam, egiluvchan lekin hayot zarbalaridan sinmay yuqoriga olg'a intilmoqda. Pak Vanso o'zining hayotiy tarjibalaridan kelib chiqib, haqiqiy koreys ayoli qanday ona bo'lishi lozimligini ta'kidlamoqchi bo'lgandek go'yo.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, barcha dunyo xalqlar singari koreys xalqida ham ona maqomi ulug'langan, quyidagicha ifodalangan:

- ayolning eng sharafligi va mas'uliyatli maqomi;
- hayot davomiyligining ramzi;
- sog'lom avlod tarbiyasi uchun mas'ul inson;
- qiz farzanad tarbiyasida birinchi ibrat va namuna sohibasi;
- insonning chin do'sti va sirdoshi kabi tushunchalarni anglatadi.

Demak, eng avvalo ona hayotning davomchisidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydazimova U va bosh. Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2014.
2. 이인나. 조명희 문학 연구. – 서울., 2006년
3. 조로대사전. 제1.2권. 모스코바., 1976년
4. [www.arirang.ru](http://www.arirang.ru)